

FOTOJURNALISTIKA KASB ETIKASI VA MAJBURIYATLARI

Anvarova Muqaddas Xomidjon qizi

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Xalqaro
jurnalistika yo'nalishi 3- kurs talabasi*

Annotatsiya: Foto – bu “chiroq”, “chiroq bilan chizish” degan ma’nomlarni anglatadi. Fotoreportaj esa “hujjatli rasm”. Fotojurnalistika – bu yangiliklarni aytib berish uchun tasvirlardan foydalanadigan jurnalistikaning bir janri hisoblanadi. U harakatsiz tasvirlarga asoslangan bo‘lishiga qaramasdan, radio eshittirish jurnalistikasida ishlatiladigan videoga ham murojaat qilinadi¹. Fotojurnalistika fotografiyaning boshqa yaqin sohalaridan (hujjatli fotografiya, ijtimoiy hujjatli suratga olish, urush fotosurati, ko‘cha fotosurati va mashhur fotosuratlar kabi) qat’iy jurnalistik nuqtai nazardan hikoya qiluvchi halol, ammo xolis yondashuvni talab qiladigan qat’iy-axloqiy asosga egaligi bilan ajralib turadi. Fotojurnalistlar ommaviy axborot vositalariga o‘z hissalarini qo‘shish bilan birga, jamoalarni bir-biri bilan bog‘lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Fotoreportaj, fotojurnalistika, etika, majburiyat.

Zamonaviy davrning yana bir muhim jurnalistika sohasi bo‘lgan fotojurnalistika janri keng ko‘lamda rivojlanib bormoqda. Shuningdek, ushbu janr jurnalistning badiiy mahoratiga, uslubiyligiga, xayolotiga bog‘liq bo‘lib, o‘z asarlarida aynan uning ichki kechinmalari, rasmlar orqali nimani bayon qilmoqchi ekanligi, so‘zsiz rasmlar aslida nima demoqchi ekanligini badiiy so‘zlari bilan izohlab beradigan muhim janr hisoblanadi. Shuningdek, fotojurnalistika janrining tarixiy shakllanishidan tortib, zamonaviy dunyoning muhim jurnalistik janriga aylangunga qadar davriy bosqichlardan o‘tib kelgan. Shu o‘rinda, fotojurnalistika nima va nima uchun ushbu sohani o‘rganish

¹ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fotojurnalistika>

kerak degan savollar paydo bo'ladi. Aynan ushbu savollarga izohlar haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Foto – bu “chiroq”, “chiroq bilan chizish” degan ma'nolarni anglatadi. Fotoreportaj esa “hujjatli rasm”. Fotojurnalistika – bu yangiliklarni aytib berish uchun tasvirlardan foydalanadigan jurnalistikaning bir janri hisoblanadi. U harakatsiz tasvirlarga asoslangan bo'lishiga qaramasdan, radio eshittirish jurnalistikasida ishlatiladigan videoga ham murojaat qilinadi². Fotojurnalistika fotografiyaning boshqa yaqin sohalaridan (hujjatli fotografiya, ijtimoiy hujjatli suratga olish, urush fotosurati, ko'cha fotosurati va mashhur fotosuratlar kabi) qat'iy jurnalistik nuqtai nazardan hikoya qiluvchi halol, ammo xolis yondashuvni talab qiladigan qat'iy-axloqiy asosga egaligi bilan ajralib turadi. Fotojurnalistlar ommaviy axborot vositalariga o'z hissalarini qo'shish bilan birga, jamoalarni bir-biri bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu amaliyotni amalga oshirish uchun ular yaxshi ma'lumotga ega, bilimli bo'lishi kerak va yangiliklarni ijodiy hamda qiziqarli tarzda yetkazib bera olish ko'nikmalarini shakllantirgan bo'lishlari shart.

Shu o'rinda, fotojurnalistika sohasining tarixiga to'xataladigan bo'lsam, ushbu sohaning shakllanish davri XIX asrdan boshlangan bo'lib, yangiliklarni tasvirlar orqali aytib berish amaliyoti fotografiyaning dastlabki kunlaridan boshlanganligiga guvoh bo'lish mumkin. O'z navbatida, fotojurnalistika tarixidagi quyidagi muhim bosqichlarni ko'rish mumkin:

XIX asrda Fotosurat ixtirosi paydo bo'lganligi bilan ushbu sohaga ilk qadam qo'yilgan edi. Aynan, 1830-1840-yillarda Lui Dager va Genri Foks Talbot tomonidan fotografiya ixtirosi bilan fotojurnalistikaga asos solingan edi³. Dastlabki fotosuratlar portretlar va landshaftlarni tashkil qilgan. Bundan tashqari, “The Times” da Lord Horatio Nelsonning dafn marosimining illyustratsiyasi kabi dastlabki rasmlar

² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fotojurnalistika>

³ <https://photo-museum.org/daguerre-invention-photography/#:~:text=After%20Ni%C3%A9pce's%20death%2C%20Daguerre%20alone,and%20made%20Daguerre%20world%20famous.>

gazetalarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, ilk haftalik tasvirlangan gazeta "Illustrated London News" 1842-yilda chop etilgan⁴.

XX asr boshlariga kelib, ijtimoiy hodisalarni yoritadigan faol jurnaslitika tarmog'iga aylandi. Misol uchun, Ernest X. Uilson va Uillard D. Strayt kabi fotosuratchilar Xitoydagi bokschilar qo'zg'olonini hujjatlashtirib, mojaro zonalarida fotojurnalistikaning ilk namunalarini taqdim etganliklari ushbu holatning yaqqol namunasi hisoblanadi⁵ (1-rasm). Bundan tashqari, ilk yangiliklar fotosuratlari – ofatlar, jinoyatlar va sport voqealari tasvirlariga asoslangan bo'lib, 1880-yillarda gazetalarda paydo bo'la boshlagan. Aynan, ushbu amaliyotning bajarilishi turli yangiliklarni aks ettiruvchi xabarlardan iborat bo'lgan fotojurnalistika tarmog'ini yuzaga keltirgan edi.

XX asr o'rtalari va oxiriga kelib, fotojurnalistika sohasining asosiy kundalik masalalari urush va uning oqibatlariga qaratilgan edi. Jumladan, Ikkinchi jahon urushida Robert Kapa, Margaret Burk-Uayt va U. Yujin Smit kabi fotojurnalistlar urushning kuchli tasvirlarini suratga olib, jangovar voqelikni ommaga yetkazish vazifalarini bajarishgan⁶ (2-rasm). Shuningdek, Vetnam urushi fotojurnalistlar, jumladan, Larri Berrouz, Nik Ut va Eddi Adams tomonidan keng yoritilgan, ularning tasvirlari urush bayonotlarini jamoatchilik e'tiboriga taqdim qilishgan va ushbu suratlarda jamiyatga sezilarli darajada jiddiy ta'sir ko'rsatgan⁷.

Zamonaviy fotojurnalistikani XX asr oxiri - XXI asr boshlari bilan bog'lash mumkin. Ushbu davr fotojurnalistik tarixida tub burilish yasagan davr bo'lib, raqamli fotosuratlar, ijtimoiy tarmoqlar, yuqori sifatga ega kameralar, mobil telefonlar va boshqa texnologiyalarning ishlab chiqarilishi natijasida juda yuqori darajaga ko'tarildi⁸.

⁴ Laurel Brake. Dictionary of Nineteenth-century Journalism in Great Britain and Ireland. Academia Press, 2009 — 495 bet.

⁵ "KUNG, Tai H. SALZWEDEL & CO. | Chinese man holding fan". Archived from the original on 2011-09-28. Retrieved 2011-02-11.

⁶ <https://quizlet.com/593480158/module-9-documentary-and-photojournalism-flash-cards/>

⁷ [https://www.cliffsnotes.com/tutors-problems/Ancient-History/47380794-What-was-important-about-the-photojournalism-in-the-Vietnam-](https://www.cliffsnotes.com/tutors-problems/Ancient-History/47380794-What-was-important-about-the-photojournalism-in-the-Vietnam-War/#:~:text=More%20particularly%2C%20during%20the%20war,had%20on%20the%20American%20psyche.)

[War/#:~:text=More%20particularly%2C%20during%20the%20war,had%20on%20the%20American%20psyche.](https://www.cliffsnotes.com/tutors-problems/Ancient-History/47380794-What-was-important-about-the-photojournalism-in-the-Vietnam-War/#:~:text=More%20particularly%2C%20during%20the%20war,had%20on%20the%20American%20psyche.)

⁸ Rees, D. "Picturing a Free Press. Photographs Have the Power to Bring the Truth to Life," IPI Global Journalist, 2014, 3rd quarter: 16.

Jumladan, Facebook, Twitter va Instagram kabi ijtimoiy media platformalarining yuksalishi fotojurnalistika manzarasini o'zgartirib, suratlarni bir zumda almashish va fuqarolik jurnalistikasining yuksalishiga olib keldi. Bundan tashqari, yuqori sifatli kameralarga ega smartfonlarning ko'payishi fotojurnalistikani demokratlashtirib, har kimga real vaqt rejimida yangiliklarning tafsilotlarini tasvirga olish va almashish uchun bir qator qulayliklarni yaratdi.

Shuningdek, fotogalareyaga haqida to'xtaladigan bo'lsak, avvalambor, uning ma'nosi va mazmuniga ahamiyat qaratish darkor. Shu o'rinda, **Fotogalereya** – bu ma'lum bir joyda, masalan, jismoniy ko'rgazma maydoni yoki raqamli platformada namoyish etilgan rasmlar to'plami hisoblanadi. Fotogalereyaning mohiyati va mazmuni uning maqsadi, mavzusi va auditoriyasiga qarab juda katta farq qilishi mumkin. Jumladan, quyidagi hollarda uning mohiyati va mazmunini izohlash mumkin:

Birinchi, u vizual tajriba, hikoya, badiiy ifoda, madaniy aks etish, xissiy ta'sir va xabardorlik mohiyatlaridan iborat bo'lib, tomoshabinlarga tasvirlarni noyob va immersiv tarzda jalb qilish maqsadida vizual tajribani oshirish; har bir fotosurat sodir bo'lgan voqea haqida so'zlab berishi; fotosuratchilarning badiiy ifodasini namoyish etish; madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va tajribalarni aks ettirish; his-tuyg'ularni uyg'otish kuchiga ega bo'lgan suratlarni tayyorlash; ijtimoiy adolat, atrof-muhitni muhofaza qilish yoki tarixiy voqealar kabi muhim masalalar haqida ma'lumot berishi bo'yicha muhim amaliy jarayonga aylanib bordi.

Ikkinchi, fotogalereyaning mazmuni haqida so'z borar ekan, mavzu, tasvirni tanlash, kuratorlik, taqdimot, rassom bayonotlari, interaktivlik va tomoshabinlarni jalb qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shuningdek, ular manzaralar, portretlar, hujjatli fotografiya yoki mavhum san'at namunalari; rasmlarni tanlash ko'rgazmaning umumiy ta'sirini belgilashi; yaxlit va qiziqarli hikoya yaratish uchun tasvirlardan mazmunli tarzda foydalanish; ramkalar, yorug'lik va oraliqlar tomoshabinlar tomonidan qanday qabul qilinishi haqida o'ylar; rassomlarning ijodiy jarayoni va niyatlari haqida tushunchalar

berish; tomoshabin tajribasini yaxshilash; suhbatlari yoki ekskursiyalar orqali tomoshabinlarni jalb qilish fotogalereyaning asosiy maqsadi sanaladi.

O'z navbatida, fotogalareyaning tarixiga nazar soladigan bo'lsak, fotogalareyalarning tarixi fotografiyaning rivojlanishi bilan parallel bo'lib, galereyalar fotografiya san'ati va hunarmandchiligini namoyish etish va nishonlash maqsadida tashkillashtiriladigan ko'rgazma sanaladi. Shuningdek, uning tarixi quyidagi bosqichlardan iboratdir:

XIX asrda fotojurnalistika sohasining rivojlanishi bilan birga, fotogalareyalar ham paydo bo'ldi. Jumladan, ilk fotosuratlar ko'rgazmalari (1839-1860 yillar) XIX asrning o'rtalarida Parij va London shaharlaridan o'tkazilgan. Ulardagi dagerreotiplarning birinchi ommaviy ko'rgazmasi va o'sha davrning boshqa yangiliklari bilan bir qatorda fotosuratlar taqdim etilgan Buyuk ko'rgazmalar sirasiga kiradi⁹. Aynan ushbu voqealardan keyin Parij va London shaharlarida Fotografik Jamiyatlari tuzilgan (3-rasm).

XX asrga kelib, fotogalareyalar badiiy ifodaga ega bo'lgan tasviriylik va ko'rgazmalarga boy bo'la boshlagan. Shuningdek, ushbu sifatlarni ta'kidlaydigan "Piktorialistlar" harakati tasvirchi fotosuratchilar o'z ishlarini namoyish etishlari mumkin bo'lgan salon ko'rgazmalarini tashkil etishgan¹⁰. Ushbu ko'rgazmalarning aksariyati his-tuyg'ularni uyg'otishga va go'zallik tuyg'usini yetkazishga xizmat qiladi.

XX asr oxiridan hozirgi kungacha bo'lgan fotogalareya sohasidagi tub burilishlar zamonaviy tendensiyalar natijasida rivojlanib bordi. Ushbu davr fotogalareyalari ko'proq soahalarga ixtisoslashgan bo'lib, o'ziga xos janrlar yoki uslublarga ega edi. Jumladan, Nyu-Yorkdagi Xovard Grinberg galereyasi va Londondagi Maykl Xoppen galereyasi kabi galereyalar klassik va zamonaviy fotografiya ko'rgazmalari bilan mashhur cho'qqisini egalladi¹¹. Bundan tashqari, raqamli fotografiya va internetning yuksalishi onlayn fotografiya galereyalarining ko'payishiga olib keldi. Shu o'rinda, Instagram va

⁹ https://www.metmuseum.org/toah/hd/dagu/hd_dagu.htm

¹⁰

<https://www.artgallery.nsw.gov.au/artboards/photography/pictorialism/#:~:text=What%20is%20pictorialism%3F,rather%20than%20its%20documentary%20ones.>

¹¹ <https://www.michaelhoppengallery.com/>

Flickr kabi onlayn platformalarda fotograflar o'z ijod namunalarini ommaga yetkazish bilan birga ushbu sohaga bo'lgan ishqibozlarning sonini ham oshirdi.

Shu bilan birgalikda, forojurnalistika va fotogalareya haqida qisqacha qilib, farqlari tushuntiriladigan bo'lsa, fotojurnalistik jarayon, unda bevosita jurnalist ishtirok etadi va muhim voqea-hodisani suratga oladi. Fotogalareya esa bu joy, manzil bo'lib, fotojurnalistlarning asarlari hamda fotosuratchilarning yaxlit kompozitsiyalari jamlangan bo'ladi. Vaholanki, bu ikki soha bo'yicha farqlanishlar quyidagicha izohlanadi:

Fotojurnalistika sohasining ilk farqi – bu uning maqsadiga borib taqaladi va bundan tashqari tarkib, etika va tarqatish bo'yicha ham bir qator nomuvofiqliklarni ko'rish mumkin.

Maqsad: Fotojurnalistika – yangiliklarni aytib berish yoki hozirgi voqeani hujjatlashtirish uchun tasvirlardan foydalanadigan jurnalistika shakli hisoblanadi. U jamoatchilikni xabardor qilish va yangiliklar voqealarining vizual tasvirini taqdim etishga qaratilgan bir qator hodisalarni tasvirlash xususiyatiga ega. Shuningdek, fotojurnalistikaning quyidagi maqsadlarini keltirish mumkin:

Jamiyatni xabardor qilish: Fotojurnalistika jamoatchilikni dolzarb voqealar, muammolar va hikoyalar haqida xabardor qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fotosuratlar yozma yangiliklarni to'ldiradigan, ma'lumot yetkazishning kuchli va tezkor usulini taqdim etishi mumkin. Shuningdek, fotojurnalistlar sodir bo'layotgan hududga tashrif buyurish orqali voqea joyidan to'g'ridan-to'g'ri fotosuratlarni olishlari natijasida jamiyatga ushbu voqelik borasida axborot tarqatilishiga sabab bo'ladi va ularning asosiy vazifasi ham aynan shu sanaladi.

Ogohlikni shakllantirish: Fotojurnalistika ijtimoiy, siyosiy, ekologik va gumanitar muammolar haqida xabardorlikni oshirishi mumkin. Tasvirlar diqqatni jalb qilishi va odamlarni biron-bir mavzu bo'yicha harakat qilishga yoki boshqacha fikrlashga majbur qilish qudratiga ega. Shuningdek, atrof-muhitning ifloslanishi bugungi kunda mamlakatimizning, balki butun dunyoning asosiy muammosi sanaladigan bo'lsa, ushbu

ekologik muammo yuzasidan olingan tasvir buning yaqqol isboti ekanligini tasdiqlaydi. Aynan ushbu amaliyot aholini ogoh etganligidan dalolat beradi.

Tarixni hujjatlashtirish: Fotojurnalistika tarixning vizual yozuvi bo'lib xizmat qiladi, muhim voqealar, lahzalar va odamlarni hujjatlashtiradi. Ushbu tasvirlar o'tmish haqidagi tushunchamizni shakllantiradigan muhim tarixiy hujjatlarga aylanishi mumkin. Shuningdek, fotojurnalistika boy tariximizni yana-da chuqurroq o'rganish, tadqiq etish hamda ularni boshqalarga samarali yetkazib bergan holda tarixni yana-da mukammalligini ta'minlaydi. Natijada, fotojurnalist tomonidan olingan suratlar yana qancha asrlar yoki yillar davomida saqlanib qoladi.

Tuyg'ularni qo'zg'atish: Fotosuratlar tomoshabinlarda his-tuyg'ularni uyg'otish qobiliyatiga ega bo'lib, ularga hikoya qilinayotgan voqealar bilan hissiy bog'lanishga yordam beradi. Ushbu hissiy aloqa yangiliklarni yana-da ta'sirli va esda qolarli qilishi mumkin. Fotojurnalist tomonidan olingan suratga beriladigan izoh bu har bir shaxsning vizual xayolotini qo'zg'ashga undaydi va shuningdek, ular ushbu xayolotlari natijasida o'zlarining kelajak rejalari haqida ham o'ylashni boshlashadi. Bu esa ularda yana-da uyg'unlikni yuksaltirishga olib keladi.

Turli nuqtai nazarni taqdim etish: Fotojurnalistika yozma yoki og'zaki xabarlarga qaraganda hikoyaga boshqacha nuqtai nazarni taklif qilishi mumkin. Tasvirlar faqat so'zlar orqali osonlikcha yetkazilmaydigan tafsilotlar, ifodalar va sahnalarni olishi mumkin. Chunki hikoya janrida badiiy so'z muhim o'rin tutadi, shu bilan birga, so'z orqali insonlarni osongina o'ziga jalb qilish mumkin. Shuningdek, agar ushbu hikoyalar yordamida odamlarni o'zlariga og'dirar ekan, ularni boshqarish ham oson kechadi.

Oshkoralik va mas'uliyatni rag'batlantirish: Fotojurnalistika shaxslar, tashkilotlar va hukumatlarni, ularning harakatlari va qarorlarini vizual hujjatlashtirish orqali javobgarlikka tortishi mumkin. Bu shaffoflik va adolatni rivojlantirishga yordam beradi. Dunyo mamlakatlarini tashvishga solayotgan narsa soxta xabarlarning tarqalishi bo'lib, ularni oldini olish maqsadida turli xil factchecking va texnologik yondashuvlar asosida

tekshiriladi. Bu esa ushbu xabarlarining oldini olish uchun xizmat qilib, ularni tekshiruvchilarni rag'batlantiradi.

O'zgarishlarni himoya qilish: Kuchli tasvirlar orqali fotojurnalistika ijtimoiy o'zgarishlarni, inson huquqlarini va atrof-muhitni muhofaza qilishni himoya qilishi mumkin. Fotosuratlar targ'ibot va faollik uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin. Fotojurnalistikaning asosiy maqsadi axborotni yetkazish va tomoshabinlarning hissiy munosabatini uyg'otish sanaladi.

Fotojurnalistika sohasining yana bir asosiy farqi – bu **tarkib** hisoblanadi. Shuningdek, fotojurnalistika ko'pincha samimiy lahzalarni suratga olishga va voqelikni hujjatlashtirishga bor e'tiborini qaratadi. U yangiliklar voqealari, mojarolar, ofatlar va kundalik hayot tasvirlariga yo'g'rilgan bo'ladi. Vaholanki, fotojurnalistikaning mazmuni, odatda, faktlarga asoslangan bo'lib, voqealarga obyektiv nuqtai nazarni taqdim etishga intiladi. Garchi fotografning nuqtai nazari va ramkasi hikoyaga ta'sir qilsa-da, uning mohiyati va mazmuni o'zgarishsiz qoladi. Shuningdek, fotojurnalistika keltirilgan biror ma'lumot asosida aniq bir tarkibga ega bo'lib, shunga qarab hayotga bo'lgan qiziqish va uning ishtiyoqlilik darajasi oshib boradi.

Etika: Fotojurnalistlar aniqlik, adolat va mavzularga hurmatni birinchi o'ringa qo'yadigan axloqiy me'yorlarga amal qiladilar. Ular haqiqat, oshkoralik va zararni kamaytirish kabi tamoyillarga amal qilishlari kerak. Agar qonuniy belgilangan normalar bo'yicha o'z faoliyatlarini olib bormaydigan bo'lsalar, ular muqarar jazoga tortiladi. Shuningdek, ularning qilayotgan ushbu ishlari esa hurmatsizlik deb baholanadi. Bundan tashqari, jurnalistlar aholi bilan munosabatni shakllantirayotganida ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari darkor. Agar ularning shaxsiyatiga tegadigan haqoratimiz so'zlar ishlatiladigan bo'lsa, qonunda belgilangan ma'muriy jazolarga tortiladi.

Tarqatish: Fotojurnalistik tasvirlar ko'pincha gazetalar, jurnallar, veb-saytlar va boshqa ommaviy axborot vositalarida yangiliklarga qo'shilish yoki vizual hikoya sifatida alohida turish uchun nashr etiladi. Fotojurnalistika sohasini bugungi kunda gazetalar faoliyatidagi har bir turlarida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu turlar o'zining

mavzusi ko‘lamiga qarab turli shakllarda bo‘ladi. Ya’ni ekologik, siyosiy, ijtimoiy, axborot, madaniy va boshqa turlar. Aynan, shu turlarga ixtisoslashgan holda fotojurnalistik materiallar tarqatiladi va ularning ishonchliligi ham tekshiriladi.

Fotogalereyaning fotojurnalistikadan asosiy farqlariga to‘xtaladigan bo‘lsam, ularni maqsad, tarkib, ijodiy ifoda va ko‘rgazma kabi turlarda ko‘rish mumkin. Bundan tashqari ushbu turlarni quyidagicha izohlash mumkin:

Maqsad: Fotogalereya – bu jismoniy yoki raqamli makonda namoyish etilgan fotosuratlar to‘plami. U tez-tez yangiliklar yoki dolzarb voqealarni yetkazish uchun emas, balki badiiy yoki ta’lim maqsadlarida yaratilgan. Fotogalereyaning maqsadi – fotografning badiiy qarashlari, ijodkorligi va hikoya qilish qobiliyatini namoyish etish. Bevosita fotogalareyaning maqsadlari haqida gap ketganda, ularni quyidagi shakllarda ko‘rish mumkin:

Badiiy ifodani namoyish qilish: galareyadagi jamiki fotosuratlarining insonlarga yoki tomoshabinlarga aynan nima demoqchiligini o‘rganishni anglatadi. Shuningdek, uni quyidagi ikki holatda ko‘rish mumkin: **Badiiy platforma:** Fotogalereyalar fotograflar uchun ularning ijodi, texnik mahorati va o‘ziga xos istiqbollarni ta’kidlab, o‘z ishlarini namoyish etish uchun platforma yaratadi. Ushbu platformalar bugungi zamonaviy fotogalareyalarning ko‘rinishini aks ettirib, unga tashrif buyurmoqchi bo‘lgan inson uchun o‘zgacha badiiy yaxlitlikni ta’minlash bilan birga, u haqida batafsil ma’lumot olish imkonini beradi. **Ikkinchidan, vizual hikoyalar:** Ular fotosuratchilarga ko‘pincha muayyan mavzular yoki tushunchalar atrofida tuzilgan vizual hikoyalarni aytib berishga imkon beradi va tomoshabinlarga izchil hikoya yoki badiiy sayohatni taklif qiladi. Ushbu holatda to‘satdan biror joyga tashrif buyurish orqali hikoyalarni yaratish yoki aytib berish amaliyotlari emas, balki ma’lum joyda va ma’lum vaqtda galareyaga tashrif buyurish natijasida u yerdagi mavjud suratlar orqali hikoya qilinish nazarda tutiladi.

Madaniy merosni asrash: bu tarixdan mavjud bo‘lgan narsalarni asrash bo‘lib, ular tarixiy hujjatlar, tarixiy obidalar, ziyoratgohlar yoki boshqa joylar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ushbu maqsad quyidagi ikki shaklda ko‘rinishga ega: birinchidan, tarixiy

hujjatlar – galereyalarda ko‘pincha madaniy, ijtimoiy va siyosiy voqealarni hujjatlashtirib, ularni kelajak avlodlar uchun saqlaydigan tarixiy fotosuratlar mavjud. Aynan ushbu hujjatlar orqali boy tariximiz haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lish bilan birga, ular bilan o‘sha davr voqeligini ham his qilish mumkin. Ikkinchidan, madaniy aks ettirish – ular madaniy xilma-xillik va merosni aks ettiradi va nishonlaydi, turli vaqt va joylarda inson tajribasining boyligi va xilma-xilligini namoyish etadi. Shuningdek, madaniy jihatdan qadimdan meros bo‘lib kelayotgan urf-odat va an’analar mavjud, ushbu an’analarni nishonlash munosib tarzda qarshi olinadi. Shuningdek, Navro‘z bayrami yoki shunga o‘xshash bayramlarning tarixi haqidagi suratlar aynan shular haqida so‘zlab beradi.

Tarbiyalash va axborot berish: bu ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan voqeahodisalarning yuzaga kelishi va ularning jamiyatimiz hayotida tutgan o‘rniga ko‘ra axborot beriladi. Shuningdek, ushbu holatni ikki shaklda ko‘rishimiz mumkin: birinchidan, ta’lim manbasi – fotogalereyalar ta’lim manbalari bo‘lib xizmat qiladi, tomoshabinlarga fotografiya texnikasi, tarix va tasvirlarda tasvirlangan mavzularni o‘rgatadi. Shuningdek, ushbu holat hozirgi axborotlashgan paytda aholiga fotojurnalistikaning muhim elementlari haqida xabarlarni yetkazish bilan birga, uni o‘rganishda asosiy o‘rinni egallaydi. Ikkinchidan, ogohlikni oshirish – muhim ijtimoiy, ekologik va siyosiy masalalarni yoritib, fotogalereyalar tomoshabinlar ogohligini oshirishi va harakatga undashi mumkin. Shuningdek, yuqorida ta’kidlangan soxta xabarlarning tarqalishini olidini olish uchun ham ogohlik masalalari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ushbu masalalar ishonchli axborot olishga undaydi.

Fotosuratni qadrlashni o‘rgatish: bu fotografiya san’atiga bo‘lgan hurmatni rivojlantirishga yordam beradi, ham amaliyotchilarni, ham tomoshabinlarni uning estetik va kommunikativ kuchini tan olishga va qadrlashga undaydi. Rivojlanayotgan rassomlarni targ‘ib qilish: Galereyalar rivojlanayotgan fotosuratchilarni targ‘ib qilishi, ularga ekspozitsiya va o‘z karyeralarini qurish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.

Jamiyat ishtiroki: bu fotogalareyalar odamlarning tashrif buyurishini belgilab beradi. Tashkil qilingan fotogalareyalarga aholini keng miqyosda jalb qilish masalalari quyidagi ikki ko‘rinishda bo‘ladi: birinchidan, madaniy markaz – jismoniy galereyalar ko‘rgazmalar, seminarlar va munozaralar uchun fotograflar, rassomlar va ishqibozlar jamoalarini birlashtirgan madaniy markazlar bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ushbu hududlarning bevosita aholining ishtirok etishi, uni qanchalik madaniy joyga aylanishi belgilab beradi. Bundan tashqari, rasm va surat ixlosmandlari ularni tomosha qilish bilan birga, estetik zavq olish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ikkinchidan, interfaol tajribalar: Ko‘pgina galereyalar tomoshabinlar va san’at o‘rtasida chuqurroq aloqani ta’minlovchi rassom suhbatlari, ekskursiyalar va ta’lim dasturlari kabi interaktiv tajribalarni taklif qiladi. Ushbu takliflarning manzili, albatta, fotogalareyalar bo‘lib, u yerdagi suratlar bilan yaqin munosabatni shakllantirish asosiy maqsad sanaladi.

Ijodkorlikni ilhomlantirish: bu, asosan, makon va tajribaga bog‘liq. Shuningdek, ilhomlantiruvchi makon – turli fotografik asarlarni ko‘rish ham intiluvchan fotograflarda, ham boshqa rassomlarda ijod va innovatsiyalarni ilhomlantirishi mumkin. Shuningdek, ushbu yondashuv biror suratga qiziqib turgan insonni o‘zining domiga tortishi bilan boshqa ijod namunalaridan ajralib turadi. Tadqiqot va eksperiment: Galereyalar turli fotografik uslublar, texnikalar va mavzular bilan tadqiqot va tajriba o‘tkazishni rag‘batlantiradi. Ushbu maqsad orqali uning faoliyat doirasi yetarli darajada va chuqur o‘rganiladi.

Tarkib – fotogalareyaning navbatdagi farq qiluvchi omili bo‘lib, u fotogalereyalarda turli xil mavzular, uslublar va mavzular, jumladan, landshaftlar, portretlar, mavhum san’at va kontseptual fotografiya mavjud. Shuningdek, fotogalareyaning mazmuni ko‘pincha yaxlit hikoya yaratish yoki muayyan mavzu hamda konsepsiyani o‘rganish uchun tuziladi.

Ijodiy ifoda: Fotogalereyalar faktlarni aks ettirishga ustuvor ahamiyat beradigan fotojurnalistikadan farqli o‘laroq, fotograflarga ijodiy ifoda uchun ko‘proq erkinlik beradi. Ular yorug‘lik, kompozitsiya va keyingi ishlov berish usullari bilan tajriba

o'tkazishlari mumkin, ular vizual tarzda ajoyib tasvirlarni yaratishlari mumkin. Fotogalareyada ajoyib ko'rgazma, zal va bir-biriga uyg'unlashgan san'at asarlari birgalikda yaxlit ijodiy ifodani belgilab beradi. Shuningdek, galareyada aks etadigan ushbu jarayonni boshqa joyda his qilish mumkin emas.

Ko'rgazma: Fotogalereyalar, odatda, san'at galereyalarida, muzeylarda yoki fotografiyaga bag'ishlangan onlayn platformalarda namoyish etiladi. Ular bitta fotografning ishini namoyish qiluvchi guruh ko'rgazmalari yoki yakkaxon shoularning bir qismi bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, fotojurnalistika ham, fotogalereya ham xabarlarni yetkazish va hikoya qilish uchun fotografiyadan foydalanishni qamrab olgan bo'lsa-da, ular maqsadi, mazmuni, etikasi va tarqatilishi bilan farqlanadi. Fotojurnalistika dolzarb voqealarni xolis va informatsion tarzda hujjatlashtirishga qaratilgan bo'lsa, fotogalereyalar esa fotograflarning badiiy qarashlari va ijodiy ifodasini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "2017 — 2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmoni.
- 2 "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmoni.
3. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti. www.stat.uz